PAXTA SELEKSIYASI, URUĞÇILIGI VA YETIŞTIRIŞ AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVÇI DSc.08/2025.27.12.Qx.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGAŞ

PAXTA SELEKSIYASI, URUĞÇILIGI VA YETIŞTIRIŞ AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

SIDIQOV AKMAL RAVŞANOVIÇ

ÖRTA TOLALI ĞÖZA NAVLARINI YARATIŞDA TURIÇI VA TURLARARO DURAGAYLAŞNING AHAMIYATI

06.01.05 –Seleksiya va uruğçilik ixtisosligi böyiça
dissertatsiya himoyasisiz seleksiya yutuqlari (patentlar) asosida
qişloq xöjaligi fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini oliş uçun

T A Q D I M O T

Ilmiy maslahatçi:
q.x.f.d., professor S.A.Egamberdiyeva

TOŞKENT – 2026

KIRIŞ (fan doktori (DSc) taqdimoti annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro paxta maslahat qömitasining 2025-yilning noyabr oyida e'lon qilingan baholaşlariga köra, "2025/2026-yilgi mavsumda jahon böyiça ğöza ekiş maydoni 30,4 million gektarni, paxta tolasi işlab çiqariş hajmi esa taxminan 25,4 million tonnani taşkil etişi prognoz qilingan".[1] Paxtaçilikning bunday miqyosi töqimaçilik sanoatini barqaror xomaşyo bilan ta'minlaş, hosildorlikni oşiriş, tolaning texnologik sifatini yaxşilaş hamda iqlim özgarişi bilan boğliq xatarlarni kamaytiriş vazifalarini yanada dolzarblaştiradi. Şu sababli, tezpişar, yuqori mahsuldor, tola çiqimi va sifati yuqori hamda kasalliklarga çidamli navlarni yaratiş jahon ğöza seleksiyasining muhim yönalişlaridan biri bölib qolmoqda.

Jahon ğöza seleksiyasida qimmatli xöjalik belgilarni bir genotipda uyğunlaştiriş, ayniqsa, hosildorlik, ertapişarlik, tola sifati va turli stresslarga bardoşlilikni birgalikda yaxşilaşga qaratilgan tadqiqotlar kengaymoqda. Bu jarayonda genetik kelib çiqişi turliça bölgan nav va tizmalarni çatiştiriş, uzoq avlodlarda maqsadli tanlaş işlarini amalga oşiriş, ğözaning yovvoyi turlaridan foydali genetik materiallarni introgressiya qiliş va bekkross usullardan foydalaniş öz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Şu bilan birga, molekulyar markerlar, genomika va yuqori aniqlikdagi fenotiplaş an'anaviy seleksiya qarorlarini ilmiy asoslaş va samaradorligini oşirişga xizmat qilmoqda[2]. Ayniqsa, qurğoqçilik, yuqori harorat, tuproq şörlanişi hamda viltga (vertitsillyoz va fuzarioz) bardoşli va bir vaqtning özida sanoat talablariga javob beradigan tolani şakllantirgan ğöza navlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Şu nuqtayi nazardan, tur içida va turlararo duragaylaş natijasida olinadigan qimmatli rekombinant şakllar seleksiya uçun muhim genetik manba hisoblanadi.

Özbekistonda paxtaçilikni intensivlaştiriş, hududlarning tuproq-iqlim şaroitiga mos mahalliy navlar uluşini köpaytiriş, nav va uruğ almaştiriş tizimini takomillaştiriş, yuqori reproduksiyali uruğliklar yetiştiriş hamda seleksiya yutuqlarini işlab çiqarişga joriy etişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga köra, 2026 yilda respublikada 889 ming gektar maydonga paxta ekilib, yangi ğöza navlari hamda intensiv yetiştiriş agrotexnologiyalari hisobiga umumiy qiymati 34 trln söm bölgan 5 mln tonnadan ortiq paxta hosili yiğib-terib olingan. Suv resurslari çeklangan, yozgi harorat yuqori va ayrim hududlarda tuproq şörlanişi kuzatiladigan şaroitda

[1] https://icac.org

[2] https://www.frontiersin.org/journals/plant-science/articles/10.3389/fpls.2026.1825852/full

tezpişarlikni yuqori hosildorlik, tola sifati va kasalliklarga bardoşlilik bilan birlaştiriş ayniqsa muhim hisoblanadi. Şu maqsadda bugungi kunda mahalliy va xorijiy navlarni qiyosiy sinaş, ilğor seleksiya materiallaridan foydalaniş, yangi navlarning birlamçi uruğçiligini yölga qöyiş va hududiy moslaşuvçanligini baholaş işlari amalga oşirilmoqda. Uşbu vazifalar uçun tur içida va yovvoyi turlar iştirokida olingan introgressiv materiallar asosida yaratilgan navlarning seleksion qimmati yuqoridir.

Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "Qişloq xöjaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar körsatişni yanada rivojlantiriş töğrisida"gi PF–6159-son Farmonida [3] 2023-yil 15-dekabrdagi "Paxtaçilikda uruğçilik tizimini rivojlantiriş hamda paxta hosildorligini oşirişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"gi PQ-391-son qarorida [4] belgilangan vazifalarni amalga oşirişda uşbu tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanişining asosiy ustuvor yönalişlariga mosligi. Uşbu dissertatsiya himoyasisiz seleksiya yutuği (ixtiro patenti) böyiça ilmiy işining tadqiqotlari Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirişning V. "Qişloq xöjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yönalişi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning mavzusi böyiça xorijiy ilmiy tadqiqotlar şarhi. Jahonda ğözaning serhosil, tezpişar, tola çiqimi va sifati yuqori, kasalliklar hamda noqulay ekologik omillarga çidamli navlarini yaratiş böyiça tadqiqotlar, qator, jumladan, AQŞ Qişloq xöjaligi vazirligining Qişloq xöjaligi tadqiqotlari xizmati (USDA–ARS) va Texas A&M University, Xitoy Qişloq xöjaligi fanlari akademiyasi Paxtaçilik ilmiy-tadqiqot instituti (ICR–CAAS) hamda Nankin agrar universitetida, Avstraliyaning CSIRO taşkiloti va Hindistonning ICAR–Central Institute for Cotton Researç (CICR) institutida, Özbekistonda Paxta seleksiyasi, uruğçiligi va yetiştiriş agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti hamda Fanlar akademiyasining Genomika va bioinformatika markazida olib borilmoqda.

[3] https://lex.uz/docs/-5262596

[4] https://lex.uz/uz/docs/-6694158

Uşbu ilmiy markazlar tadqiqotlarida amaliy ahamiyatga ega natijalar olingan. Jumladan, S. Saha, J. Wu, J.N. Jenkins, J.C. McCarty va D.M. Stelly iştirokidagi AQŞ tadqiqotlarida *G. barbadense L.* genetik materialini *G. hirsutum L.* genomiga introgressiya qiliş asosida 17 ta xromosoma almaştirilgan tizma yaratilgan va ulardan hosildorlik hamda tola belgilariga ta'sir etuvçi foydali allellarni aniqlaşda foydalanilgan. Nankin agrar universitetida tola sifati, mahsuldorlik va stressga bardoşlilik bilan boğliq genlar hamda QTL lokuslarini aniqlaş, molekulyar markerlar asosida qimmatli tizmalarni tanlaş işlari rivojlantirilgan. Avstraliyaning CSIRO seleksiya dasturlarida vertitsillyoz viltga çidamli Sicala V-1 va Sicala V-2 kabi navlar yaratilgan.

Ğöza seleksiyasida tezpişarlik, yuqori hosildorlik, tola sifati va viltga bardoşlilikni bir genotipda mujassamlaştiriş dolzarb vazifa bölib qolmoqda. Şu bois, tur içidagi murakkab duragaylaş va *Gossypium trilobum Skovsted* iştirokida olingan introgressiv şakllardan foydalanib, qimmatli xöjalik belgilariga ega yangi ğöza navlarini yaratiş muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Muammoning örganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda ğözaning qimmatli xöjalik belgilarining irsiylanişi va özgaruvçanligi, genetik xilma-xilligini kengaytiriş, tur içida va turlararo duragaylaş hamda yovvoyi turlarning genetik imkoniyatlaridan seleksiyada foydalaniş böyiça keng kölamli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, AQŞ olimlari S. Saha, J.N. Jenkins, J.C. McCarty, J. Wu, R.G. Percy va D.M. Stelly tomonidan *G. barbadense L.* turiga mansub xromosomalarni *G. hirsutum L.* genetik foniga introgressiya qiliş asosida xromosoma almaştirilgan tizmalar yaratilgan. Uşbu materiallar yordamida hosildorlik, tola çiqimi, uzunligi, pişiqligi va mikroneyr körsatkiçlariga ta'sir etuvçi genetik omillar aniqlangan hamda qimmatli allellardan seleksiyada foydalaniş imkoniyatlari körsatilgan. Şuningdek, xorijiy tadqiqotlarda turlararo introgressiya, miqdoriy belgilar lokuslari (QTL) va molekulyar markerlardan foydalanib, tola sifati, mahsuldorlik va kasalliklarga bardoşlilik belgilarini yaxşilaşning genetik asoslari örganilgan.

Özbekistonda ğöza genetikasi va seleksiyasining nazariy hamda amaliy asoslarini rivojlantirişda akademik D.A. Musayev, L.G. Arutyunova, S.M. Rizayeva, A.E. Egamberdiyev va boşqa olimlarning ilmiy izlanişlari muhim örin tutadi. D.A. Musayev tomonidan ğöza belgilarining irsiylaniş qonuniyatlari örganilib, *G. hirsutum L.* turining genetik kolleksiyasi, monosom va translokatsion tizmalarini yaratiş böyiça fundamental tadqiqotlar amalga oşirilgan. S.M. Rizayeva tadqiqotlarida uzoq turlararo duragaylaş asosida yangi genetik donorlar va qimmatli boşlanğiç materiallar olişning seleksion imkoniyatlari asoslangan. A.E. Egamberdiyev, L.I.Gureviç va L.V.Semenixina işlarida *G. trilobum Skovsted* iştirokida olingan

introgressiv materiallardan örta tolali ğöza seleksiyasida foydalaniş, tezpişarlik, hosildorlik, tola sifati va vertitsillyoz viltga bardoşlilik belgilarini mujassamlaştiriş masalalari örganilgan. Uşbu ilmiy izlanişlar ğözaning yangi navlarini yaratiş uçun genetik va seleksion asos bölib xizmat qilgan.

Şu bilan birga, turli genetik kelib çiqişga ega boşlanğiç şakllardan foydalanib, tezpişarlik, yuqori hosildorlik, tola sifati va kasalliklarga bardoşlilik belgilarini bitta genotipda mujassamlaştiriş, ularni keyingi avlodlarda mustahkamlaş hamda işlab çiqariş talablariga javob beradigan navlar yaratiş dolzarbligiça qolmoqda. Şu nuqtayi nazardan, tur içida va turlararo duragaylaşning seleksion imkoniyatlaridan foydalanib, yangi örta tolali ğöza navlarini yaratiş muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy-ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining işlari rejalari bilan boğliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Paxta seleksiyasi, uruğçiligi va yetiştiriş agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot işlari rejasining KXA-9-050 "Yovvoyi *G. trilobum Skovsted* turi iştirokida olingan yangi tizmalarni seleksiyada foydalaniş asosida kompleks belgi va xususiyatlarga ega, kasallik va zararkunandalarga çidamli bölgan örta tolali ğöza navlarini yaratiş va ularni Özbekistonning turli tuproq-iqlim şaroitlarida sinaş" (2009-2011-yy.), KXA-8-016 "Ğözaning introgressiv şakllari iştirokida olingan yangi tizmalardan seleksiyada foydalaniş asosida kompleks belgi va xususiyatlarga ega, *Verticillium dahliae Kleb.* zamburuğining tabiiy irqlari va söruvçi haşoratlarga çidamli navlarini yaratiş va joriy etiş» (2012-2014-yy.), KXF-5-008 "Seleksiya jarayonida introgressiv şakllardan foydalaniş asosida turlararo duragaylaş nazariyasini rivojlantiriş va usullarini takomillaştiriş" (2012-2016-yy.), KXA-8-099 "Ğözaning geografik uzoq va introgressiv şakllaridan foydalaniş asosida hosildor, tezpişar, yuqori tola çiqimiga ega, tola sifati IV tipga mansub navni yaratiş" (2015-2017-yy.) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ğözaning tur içida va turlararo duragaylaş, qöş va murakkab çatiştiriş hamda introgressiv şakllardan foydalaniş asosida tezpişar, hosildor, tola çiqimi va sifati yuqori, şuningdek, viltga bardoşli bölgan örta tolali ğöza navlarini yaratiş va qişloq xöjaligi işlab çiqarişiga tavsiya etişdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

genetik va geografik kelib çiqişi turliça bölgan mahalliy va xorijiy ğöza navlari, seleksion tizmalar hamda yovvoyi turlar iştirokida olingan introgressiv şakllardan foydalanib, tur içida oddiy, qöş va murakkab duragay kombinatsiyalarini hosil qiliş, ularning seleksion imkoniyatlarini qiyosiy baholaş;

g'özaning F_1–F_3 duragay avlodlarida tezpişarlik, hosildorlik elementlari, bir kösakdagi paxta vazni, tola çiqimi va sifati kabi qimmatli xöjalik belgilarining

irsiylanişi, özgaruvçanligi hamda ota-ona şakllariga boğliq holda namoyon böliş xususiyatlarini aniqlaş;

tur içi duragaylari va turlararo introgressiv materiallarda tezpişarlik, yuqori mahsuldorlik, tola çiqimi va sifati hamda viltga bardoşlilik belgilarini kompleks baholaş, tabiiy kasallaniş fonida qimmatli belgilar uyğunlaşgan istiqbolli rekombinant şakllarni ajratib oliş;

ajratilgan istiqbolli duragay oilalar va seleksion tizmalarni keyingi avlodlarda yakka va oilaviy tanlaş asosida takomillaştiriş, ularning morfobiologik va xöjalik belgilarini barqarorlaştiriş, stansion hamda konkurs nav sinovlari orqali yangi örta tolali ğöza navlarini yaratiş;

tur içida duragaylaş asosida yaratilgan S-6775 va S-6778 hamda turlararo introgressiv materiallar iştirokida olingan S-6779 ğöza navlarining andoza navlarga nisbatan farqlanuvçi belgilari, hosildorligi, tezpişarligi, tola sifati va viltga çidamliligini baholaş, ularning seleksiya yutuği sifatida patentlanişi, uruğçiligi, iqtisodiy samaradorligi va işlab çiqarişga joriy etiş imkoniyatlarini asoslaş.

Tadqiqot obyekti sifatida *G. hirsutum L.* turiga mansub mahalliy va xorijiy navlar, geografik va genetik jihatdan farqlanuvçi seleksion şakllar, oddiy, qöş va murakkab duragaylar, *G. trilobum Skovsted* yovvoyi turi iştirokida olingan introgressiv şakllar, mahalliy Namangan-77, Omad, S-9070,S-6530, C-2609, xorijiy Sicala va Siocra navlari hamda T-792 tizmalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning predmeti tur içida va turlararo duragaylaş natijasida qimmatli xöjalik belgilarining irsiylanişi va özgaruvçanligi, istiqbolli rekombinantlarni tanlaş samaradorligi, seleksion belgilarning avlodlarda mustahkamlanişi hamda yaratilgan yangi ğöza navlarining seleksion va amaliy qimmatini baholaşdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Nav sinovi “Методика государственного сортоиспытания селскохозяйственных култур” (1975), uruğlarni tayyorlaş “Elita va birinçi reproduksiya uruğlarini işlab çiqariş böyiça yöriqnoma” (1981) da keltirilgan uslublar asosida olib borilgan. Tadqiqotlarda oddiy, qöş va murakkab duragaylaş, F_1–F_3 avlodlarni qiyosiy baholaş, fenologik kuzatuvlar, yakka va oilaviy tanlaş, nav sinovi hamda fitopatologik baholaş usullaridan foydalanilgan. F_1 duragaylarda belgilarning dominantlik darajasi Griffing (1950) formulasi asosida aniqlangan. Tola sifati HVI uskunasida baholanib, tajriba natijalari B.A. Dospexov (1985) uslubi böyiça statistik tahlil qilingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ğözaning genetik kelib çiqişi turliça bölgan boşlanğiç şakllaridan olingan oddiy, qöş va murakkab duragaylarning F_1–F_3 avlodlarida qimmatli miqdoriy belgilarning

irsiylanişi va özgaruvçanligi qiyosiy tahlil qilinib, qöş va murakkab duragaylarda irsiy özgaruvçanlik doirasining kengligi hamda belgilar böyiça ajraliş jarayonining nisbatan uzoq davom etişi aniqlangan;

murakkab duragaylaşda ğöza navlaridan onalik şakl, geterozigotali F_1 qöş duragay ösimliklaridan olingan çangdan esa otalik komponent sifatida foydalanişning seleksion ahamiyati asoslangan;

olingan murakkab duragaylarning F_1 avlodida tezpişarlik va vertitsillyoz viltga bardoşlilik belgilarining dominantlik hamda öta dominantlik asosida irsiylanişi, keyingi avlodlarda esa uşbu belgilar böyiça qoldiq geterozisning saqlanişi aniqlangan. Uşbu çatiştiriş usuli qimmatli xöjalik belgilarining yangi rekombinatsiyalarini oliş va istiqbolli seleksion şakllarni ajratiş imkoniyatlarini kengaytirgan;

duragay avlodlarda tezpişarlik, hosil elementlari, tola çiqimi va sifati hamda vertitsillyoz viltga bardoşlilik belgilarining namoyon bölişi boşlanğiç ota-ona şakllarining genetik xususiyatlariga boğliqligi aniqlanib, Omad, S-2609, S-6530 navlari va T-792 tizmasining alohida qimmatli belgilar böyiça seleksion ahamiyati körsatilgan;

tur içidagi duragaylaş va köp avlodli maqsadli tanlaş asosida qimmatli morfobiologik va xöjalik belgilarini bir genotipda mujassamlaştiriş imkoniyati namoyon etilgan, şuningdek, *G. trilobum Skovsted* yovvoyi turi iştirokida avval olingan introgressiv materialdan foydalanişning madaniy ğöza genofondini boyitiş, vertitsillyoz viltga bardoşlilik, mahsuldorlik va tola sifati belgilarini uyğunlaştirişdagi seleksion ahamiyati asoslangan;

köp yillik duragaylaş, individual va oilaviy tanlaş, seleksion takomillaştiriş hamda nav sinovlari natijasida *G. hirsutum L.* turiga mansub, tezpişarlik, yuqori hosildorlik, tola çiqimi va sifati hamda vertitsillyoz viltga bardoşlilik belgilarining qimmatli majmuasi bilan tavsiflanuvçi S-6775 va S-6778 navlari tur içida duragaylaş, S-6779 navi esa turlararo introgressiv material asosida hammualliflikda yaratilgan. Mazkur navlarning seleksiya yutuği sifatida e'tirof etilganligi tegişliça NAP 00106, NAP 00348 va NAP 00346-sonli patentlar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tur içida oddiy, qöş va murakkab duragaylaş usullarini qöllaş natijasida qimmatli xöjalik belgilari böyiça farqlanuvçi duragay populyatsiyalar olingan. F_1–F_3 avlodlarda tezpişarlik, hosildorlik, tola çiqimi va sifati hamda vertitsillyoz viltga bardoşlilik belgilari böyiça maqsadli tanlaş asosida O-410, T-620, T-936, T-803 va O-500 kabi istiqbolli oila va tizmalar ajratilgan. T-781 va T-792 tizmalarini seleksion takomillaştiriş asosida S-6771 va S-6775 navlari yaratilgan. S-6775 navi konkurs sinovlarida standartga nisbatan örtaça 2,8 s/ga yuqori hosildorlik va 4–8 kun

tezpişarlikni namoyon etib, Farğona viloyati hududida ekiş uçun tavsiya etilgan qişloq xöjalk ekinlari Davlat reyestriga kiritilgan;

S-6530 × S-9070 duragay kombinatsiyasidan köp yillik yakka tanlaş asosida S-6778 navi, *Gossypium trilobum Skovsted* iştirokidagi introgressiv materiallardan foydalaniş orqali esa S-6779 navi yaratilgan. Konkurs nav sinovlarida S-6778 navining örtaça hosildorligi 41,1 s/ga, tola çiqimi 37,0%, S-6779 navida esa mos ravişda 41,6 s/ga va tola çiqimi 36,7% ni taşkil etdi. S-6778 navi Sirdaryo viloyatida işlab çiqariş sinovidan ötkazilgan, S-6779 navining Jizzax viloyatida birlamçi uruğçiligi taşkil etilgan. Yaratilgan S-6775, S-6778 va S-6779 navlariga tegişliça NAP 00106, NAP 00348 va NAP 00346-sonli patentlar olindi.

Tadqiqot natijalarining işonçliligi ötkazilgan dala va laboratoriya tajribalari har yilgi aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholanganligi va birlamçi hujjatlarning mavjudligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelişi, ilmiy-tadqiqot işlari matematik-statistik tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalari respublika, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda ilmiy naşrlarda çop etilganligi va natijalarni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Olingan natijalarning işonçliligi S-6775 navining 2002–2004-yillardagi, S-6778 navining 2009-2011-yillardagi va S-6779 navining 2010-2012-yillardagi konkurs nav sinovlari, standart navlar bilan qiyosiy baholaş, tolaning texnologik sifat körsatkiçlarini aniqlaş hamda vertitsillyoz vilt bilan zararlaniş darajasini hisobga oliş orqali ta’minlangan. Olingan natijalar köp yillik stansion va davlat nav sinovlarida standart navlar bilan qiyosiy baholangan, seleksiya yutuqlari patentlangan va ayrim hududlarda işlab çiqarişga joriy etilgan. Navlarning xöjalik qimmati va ösiş-rivojlaniş xususiyatlari turli sinov muhitlarida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati örta tolali ğöza seleksiyasida tur içidagi oddiy, qöş va murakkab duragaylaş usullarining genetik-seleksion imkoniyatlarini qiyosiy baholaş, şuningdek, turlararo introgressiv materiallardan yangi navlar yaratişda foydalanişning samaradorligini asoslanganligi, turli genetik kelib çiqişga ega ota-ona şakllarini çatiştiriş natijasida olingan F_1–F_3 duragay avlodlarda tezpişarlik, hosil elementlari, bir kösakdagi paxta vazni, 1000 dona çigit vazni, tola çiqimi va sifati kabi qimmatli miqdoriy belgilarning irsiylanişi, özgaruvçanligi, geterozis va transgressiv ajraliş xususiyatlari örganilib, duragaylaş usullariga boğliq holda ularning namoyon bölişidagi tafovutlar aniqlanganligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli genetik kelib çiqişga ega boşlanğiç materiallardan foydalaniş, tur içidagi duragaylaş, introgressiv şakllarni seleksiya

jarayoniga jalb etiş va köp yillik maqsadli tanlaş natijasida örta tolali ğözaning tezpişar, serhosil, tola çiqimi va sifati yuqori bölgan S-6775, S-6778 va S-6779 navlari hammualliflikda yaratilganligi bilan belgilanadi. Mazkur navlar stansion, konkurs va tegişli işlab çiqariş sinovlarida baholangan hamda seleksiya yutuqlari sifatida S-6775 naviga NAP 00106, S-6778 naviga NAP 00348 va S-6779 naviga NAP 00346-sonli patentlar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinişi. Örta tolali ğöza navlarini yaratişda tur içida va turlararo duragaylaşning seleksion ahamiyatini örganiş böyiça olib borilgan köp yillik ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida:

turli genetik kelib çiqişga ega boşlanğiç materiallardan foydalaniş, tur içida duragaylaş, introgressiv şakllarni seleksiya jarayoniga jalb etiş va köp yillik maqsadli tanlaş natijasida örta tolali ğözaning tezpişarligi, yuqori hosildorlik salohiyati, tola çiqimi va sifati hamda vertitsillyoz viltga çidamliligi bilan ajralib turuvçi S-6775, S-6778 va S-6779 navlari hammualliflikda yaratilgan, mazkur navlarga Intellektual mulk agentligi tomonidan seleksiya yutuği uçun tegişliça S-6775 naviga 2012-yil 30-yanvarda NAP 00106-sonli, S-6778 naviga 2021-yil 8-noyabrda NAP 00348-sonli va S-6779 naviga 2021-yil 8-noyabrda NAP 00346-sonli patentlar berilgan va uşbu navlar keng maydonlarda joriy qilingan (Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligi huzuridagi Qişloq xöjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 3-noyabrdagi 05/04-04-1078-son ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy ğöza navlari assortimenti yangi seleksiya yutuqlari bilan boyitilib, ulardan turli tuproq-iqlim şaroitlarida işlab çiqariş va uruğçilik yönalişlarida foydalaniş imkoniyati yaratilgan.

ğözaning S-6775 navi 2013-yildan Farğona viloyati uçun rayonlaştirilib, Özbekiston Respublikasi hududida ekişga tavsiya etilgan qişloq xöjaligi ekinlari Davlat reestriga kiritilgan. Uşbu nav Farğona viloyati fermer xöjaliklarida 2014-yilda 300 gektar, 2015-yilda 1 049 gektar, 2016-yilda 2 255 gektar, 2021-yilda 1 800 gektar va 2022-yilda 5 200 gektar maydondajoriy qilingan. (Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligi huzuridagi Qişloq xöjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 3-noyabrdagi 05/04-04-1078-son ma’lumotnomasi). Natijada, S-6775 navining Farğona viloyati tuproq-iqlim şaroitlariga moslaşganligi, tezpişarligi, yuqori hosildorlik salohiyati va sifatli tola hosil qilişi işlab çiqariş şaroitida tasdiqlanib, uning mazkur hududda keng maydonlarda yetiştiriş uçun xöjalik qimmati namoyon bölib, Farğona viloyati Quva tumani fermer xöjaliklarida S-6775 navini yetiştiriş natijasida andoza navga nisbatan gektariga qöşimça 4–5 sentner sifatli paxta

hosili olingan hamda iqtisodiy samaradorlik gektariga örtaça 1 309,7 ming sömni, rentabellik darajasi esa 15–20 foizni taşkil etgan;

ğözaning S-6779 navi böyiça 2019-yilda Jizzax viloyatida elita uruğçilik xöjaligi taşkil etilib, birinçi yilgi uruğlik köçatzorida 0,3 gektar, köpaytiriş köçatzorida 0,7 gektar, elita köçatzorida 5 gektar, şuningdek, Jizzax viloyatidagi fermer xöjaligida 10 gektar maydonda joriy qilingan (Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligi huzuridagi Qişloq xöjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 3-noyabrdagi 05/04-04-1078-son ma'lumotnomasi). Natijada, turlararo introgressiv materiallar asosida yaratilgan yangi ğöza navidan işlab çiqariş şaroitida foydalaniş, navga xos belgilarni saqlagan holda uruğlik materialini köpaytiriş va birlamçi uruğçilik tizimini rivojlantiriş imkoniyatlari namoyon bölib, işlab çiqariş şaroitida örtaça 33–35 s/ga paxta hosili oliş hamda birlamçi uruğçilikni taşkil etiş imkonini bergan;

ğözaning S-6778 navi Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanidagi "LT Tekstil Sirdaryo" MÇJ paxta-töqimaçilik klasteri maydonlarida işlab çiqariş sinovlariga joriy qilingan (Özbekiston Respublikasi Qişloq xöjaligi vazirligi huzuridagi Qişloq xöjaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 3-noyabrdagi 05/04-04-1078-son ma'lumotnomasi). Natijada, navning vegetatsiya davri 110–112 kunni, bir kösakdagi paxta vazni 5,7–5,9 g, 1000 dona çigit vazni 120,9 g, tola çiqimi 38,0–38,5%, mikroneyr körsatkiçi 4,3–4,5, tolaning nisbiy uziliş kuçi 32–34 gs/teks va tola uzunligi 1,18–1,20 dyuymni taşkil etib, Sirdaryo viloyati tuproq-iqlim şaroitlarida yetiştirişga istiqbolli ekanligi körsatilib, uning uruğçiligini taşkil etiş va işlab çiqariş maydonlarini kengaytiriş uçun amaliy asos yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Uşbu tadqiqot natijalari 5 ta, şu jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi böyiça jami 14 ta ilmiy iş, şulardan 3 ta patent, Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini çop etiş tavsiya etilgan ilmiy naşrlarda 3 ta, jumladan, 2 ta mahalliy hamda 1 ta xorijiy jurnallarda maqolalar naşr qilingan.

TADQIQOTNING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ötkaziş joyi va şaroitlari. Tajribalar 2001-2005-yillarda Özbekiston Ğöza seleksiyasi va uruğçiligi ilmiy tadqiqot instituti Markaziy tajriba xöjaligining oqpalak bilan tabiiy zararlangan, böz tuproqli, yer osti sizot suvlari 2,5-3,0 metr çuqurlikda joylaşgan maydonlarda olib borildi. Uşbu institut hududi Toşkent

viloyatining Qibray tumanida (Toşkent şahriga nisbatan şimoliy-şarqiy yönalişda) bölib, geografik jihatdan 41°22 şimoliy va 60°54 şarqiy kengliklarda hamda dengiz sathidan 574,2 m balandlikda joylaşgan.

Seleksiya köçatzori. Örta tolali ğözaning tezpişar, serhosil, tola sifati yuqori va viltga nisbatan bardoşli navlarini yaratişda tur içidagi va turlararo genetik manbalarning ahamiyati örganildi. Oddiy, qöş va murakkab çatiştirişlar orqali irsiy belgilarning yangi kombinatsiyalarini hosil qiliş, duragay avlodlarda ajraliş va özgaruvçanlikni baholaş, söngra maqsadli yakka va oilaviy tanlaş tadqiqotning bir-biriga boğliq bosqiçlarini taşkil etdi.

Tur içidagi duragaylaş *G. hirsutum L.* doirasida mahalliy va geografik jihatdan uzoq nav hamda tizmalarning mahsuldorlik, tezpişarlik, tola çiqimi va kasallikka munosabat kabi belgilarini birlaştirişga xizmat qildi. Turlararo duragaylaşda esa *G.trilobum Skovsted* iştirokida avval olingan introgressiv material seleksiyaga jalb qilinib, madaniy ğöza bilan qayta çatiştiriş orqali noyob irsiy kombinatsiyalarni xöjalik jihatidan maqbul genetik fonda mustahkamlaş imkoniyati baholandi.

1. F_1-F_3 duragaylarda qimmatli xöjalik belgilarining irsiylanişi, özgaruvçanligi va şakllanişi. Kompleks ijobiy belgilarga ega bölgan yangi ğöza navlarini yaratişda ğözaning morfo-xöjalik va sanoat uçun qimmatli bölgan belgilaridagi özaro boğliqlik qonuniyatlarini mukammal mukammal örganib, seleksiya işida samarali natijalarga erişişi mumkin.

Tezpişarlik barça ösimliklarda bölgani kabi ğözada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biz öz tajribalarimizda uşbu belgiga ham katta e'tibor qaratdik. Tajriba ma'lumotlari (1-jadval) dan körinib turibdiki, onalik şakl sifatida iştirok etgan namunalar içida nisbatan tezpişarlari T-792 tizmasi, Omad navi bölib, körsatkiç mos ravişda 110,4 va 112,5 kunni taşkil etgan bölsa, keçpişarlari xorijiy Siocra, Sicala (127,7 va 123,1 kun) navlari böldi.

F_1 turiçi duragaylarida kösaklarning 50% oçilişini kunlar böyiça olingan ma'lumotlariga köra, 112,2-114,4 kun oraliğida şakllandi.

Tajriba natijalaridan ma'lum böldiki, örganilgan F_1 turlararo duragaylar belgi böyiça 108,2-115,8 kun bölgan körsatkiçni ifoda etdi. Tezpişarlik belgisining irsiylaniş koeffitsiyenti kombinatsiyalarga boğliq ravişda turliça bölib, örganilgan turlararo duragayning aksariyat qismida salbiy geterozis holati kuzatildi. Olingan dominantlik körsatkiçlari asosida belgining F_1 turlararo duragaylarda namoyon bölişi har bir kombinatsiyada öziga xos tarzda keçişini xulosa qiliş mumkin.

Izlanişlarimizda iştirok etgan F_2 duragay ösimliklari kösaklarining 50% pişgungaça bölgan kunlar boşlanğiç namunalarning belgi böyiça körsatkiçlari bilan taqqoslab

örganildi. Olingan ma’lumotlar (2-jadval) ota-ona şakllarida belgining örtaça körsatkiçi 112,8-114,0 kundan (Omad va T-792) 126,1-126,7 kungaça (Sicala va Siocra) ekanligini körsatdi.

Variatsion qatorlarning joylaşuvi şuni körsatadiki, boşlanğiç namunalarning ösimliklari variatsion qatorning çap sinfi 106 kundan, öng sinfi esa 132 kungaça bölgan oraliqdan örin olgan. Şuningdek, ösimliklarning asosiy qismi variatsion qatorning örta sinflarida, ya’ni 115-117 va 118-120 kunlar oraliğida joylaşganligini kuzatiş mumkin.

Örganilayotgan belgi böyiça ikkinçi böğin duragaylaridan olingan natijalar tahlili şuni körsatdiki, ösimliklarning variatsion qator sinflarga taqsimlanişi boşlanğiç namunalarning irsiyatiga boğliq ravişda keçdi. Olingan F_2 duragaylarda kösaklarning 50% pişişi belgisining özgaruvçanlik darajasi past bölganligi mazkur kombinatsiyalar böyiça özgaruvçanlik darajasi bir-biridan keskin farq qilmasligidan dalolat beradi.

1-jadval

F_1 duragaylarida 50% kösaklar oçilişi belgisining irsiylanişi (kun hisobida)

T/r	Boşlanğiç namunalar va F_1 duragaylari	X±Sx	G	V%	Hp
1.	Namangan-77	120,8±0,5	4,2	3,5	
2.	S-9070	113,1±0,5	4,0	3,6	
3.	S-6530	117,6±0,5	4,3	3,6	
4.	S-2609	114,9±0,5	4,0	3,5	
5.	Omad	112,5±0,6	4,4	3,9	
6.	Sicala	123,1±0,5	3,8	3,1	
7.	Siocra	127,7±0,4	3,0	2,4	
8.	T-792	110,4±0,5	4,2	3,5	
9.	C-2609 x C-9070	112,2±0,7	5,2	4,6	-2,0
10.	C-2609 x Omad	114,4±0,6	4,6	4,1	0,6
11.	T-792 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77 xSicala)]	109,2±0,8	6,6	6,0	-1,6
12.	S-2609 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	113,2±0,5	4,2	3,7	-4,7
13.	Omad x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77x Sicala)]	109,5±0,5	4,3	3,9	-4,3
14.	T-792 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	110,5±0,7	5,2	4,7	-1,0
15.	S-2609 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1Omad xSiocra)]	115,8±0,6	4,8	4,1	1,6
16.	Omad x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	108,4±0,6	4,4	4,0	-3,9
17.	S-2609xF_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	109,1±0,6	4,8	4,4	-8,2
18.	S-6530xF_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	109,9±0,6	5,5	4,1	-13,0
19.	Nam-77xF_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	112,9±0,6	4,4	3,9	-2,6
20.	T-792 xF_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	111,0±0,6	5,2	4,6	-0,8
21.	S-2609xF_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	111,6±0,8	6,4	5,7	-5,4
22.	S-9070xF_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	109,0±0,8	6,3	5,7	-3,5
23.	S-6530xF_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	108,9±0,6	4,9	4,5	-13,5
24.	Omad x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	108,2±0,7	5,1	4,7	-3,2
	$EKF_{(05)}$	**1,73**			

2-jadval

F_2 duragaylarida 50% kösaklar oçilişi belgisining özgaruvçanligi (kun hisobida)

T/r	Boşlanğiç namunalar va F_2 duragaylari	K=3											X±Sx	G	V %
		100-102	103-105	106-108	109-111	112-114	115-117	118-120	121-123	124-126	127-129	130-132			
1.	Namangan-77			2	7	8	15	18	10				116,5±0,5	4,1	3,5
2.	S-9070			5	10	12	16	15	2				114,6±0,5	4,0	3,5
3.	S-6530				6	12	11	19	8	4			117,1±0,5	4,2	3,6
4.	S-2609				1	10	10	20	14	5			118,5±0,5	3,7	3,1
5.	Omad			9	16	10	21	3	1				112,8±0,5	3,8	3,4
6.	Sicala						2	3	10	17	13	15	126,1±0,5	4,0	3,2
7.	Siocra						1	4	8	12	18	17	126,7±0,5	3,9	3,1
8.	T-792			4	12	20	8	15	1				114,0±0,5	3,9	3,4
9.	C-2609xC-9070		2	9	5	20	6	12	2	4			114,1±0,7	5,3	4,7
10.	C-2609xOmad		7	3	11	17	7	8	4	3			113,4±0,7	5,6	5,0
11.	T-792 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	2	1	3	14	11	13	8	4	4			114,3±0,7	5,6	4,9
12.	S-2609 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]		7	12	19	9	4	6	3				110,0±0,6	4,9	4,4
13.	Omad x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]		8	4	13	18	11	5	1				111,9±0,6	4,5	4,0
14.	T-792 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	1	3	6	15	13	10	4	5	3			113,7±0,7	5,5	4,9
15.	S-2609 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]		8	10	16	9	5	7	5				111,7±0,7	5,4	4,9
16.	Omad x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	3	4	9	20	8	5	3	4	3			111,6±0,8	6,0	5,3
17.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	4	7	10	20	8	2	5	3	1			110,4±0,7	5,6	5,1
18.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	12	23	12	6	4	1	1	1				106,0±0,6	4,6	4,3
19.	Nam-77 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	9	16	15	4	6	3	5	1	1			108,0±0,8	6,1	5,6
20.	T-792 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	19	32	6	1	1	1						103,8±0,4	2,9	2,8
21.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	7	3	8	19	11	3	6	3				110,6±0,7	5,6	5,1
22.	S-9070 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	7	12	14	6	8	4	3	6				109,5±0,8	6,4	5,9
23.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	11	7	28	7	3	1	2	1				107,0±0,6	4,6	4,3
24.	Omad x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	20	14	21	3	1	1						104,7±0,4	3,4	3,2

Belgining kunlar böyiça körinişi esa 104,7 kundan 114,3 kungaça bölgan oraliqni taşkil etdi.

F_2 duragaylarida kösaklarning 50% pişişi belgisining körsatkiçi 103,8 kundan (F_2T-792 x F_1[(F_1Omad x Siocra) x (F_1Namangan-77 x Sicala)]) 114,3 kungaça (F_2T-792 x F_1[(F_1Namangan-77 x Sicala) x (F_1Omad x Siocra)]) bölganligi aniqlandi. Şuni ham ta'kidlaş joizki, izlanişlarimizning aksariyat turlararo duragaylarida tezpişar rekombinantlar hisobiga belgining örtaça körsatkiçi yaxşilanganligi kuzatildi. Tajriba natijalaridan kelib çiqqan holda uşbu belgi böyiça şuni e'tirof etiş mumkinki, F_2 duragaylari kombinatsiyalarida variatsion qatorning deyarli barça sinflariga mansub ösimliklar paydo böldi. Bu esa, uşbu avlod duragaylarida keng qamrovli tanlov işlarini olib boriş imkoniyatini beradi.

Kösaklarning 50% pişgungaça bölgan davr böyiça F_3 duragaylaridan va boşlanğiç namunalardan olingan natijalar ham bir-biriga taqqoslab örganildi (3-jadval). Boşlanğiç aşyolar içida xorijiy Sicala va Siocra navlari oldingi yillardagi kabi mahalliy navlarga nisbatan 7-13 kun keçpişarlikni (116,8 va 118,4 kun) namoyon qildi. Uşbu navlarga mansub ösimliklarning asosiy qismi variatsion qatorning 115-123 kungaça bölgan sinflarda joylaşgan bölsa, tezpişarlik böyiça yuqori natijani körsatgan (103,0 va 103,8 kun) T-792 tizmasi va Omad naviga mansub ösimliklarining köpçiligi esa 100-105 kungaça bölgan sinflarga taqsimlandi. Belgi böyiça qolgan ota-ona namunalarining körsatkiçlari 106,0 kundan 111,3 kungaça bölib, ösimliklarning asosiy qismi variatsion qatorning 106,0-111,0 kungaça bölgan sinflarida joylaşganligi qayd etildi.

Uçinçi böğin duragaylarida kösaklarining 50% pişgungaça bölgan davri böyiça avvalgi yillarda örganilgan F_2 duragaylariga nisbatan yuqori natijalar (keçpişarlik) qayd etildi, ya'ni mos ravişda körsatkiçlar 113,2 kundan 117,4 kungaça bölgan oraliqda joylaşdi. Jadval ma'lumotlaridan körinib turibdiki, örganilgan F_3 duragaylarda belgining körsatkiçlari turliça körinişda bölganligi qayd etilgan. Tajribamizning köpçilik hollarida kösaklarning 50% pişişi qisqa kunni taşkil etgan namunalarni çatiştirişga jalb qiliş natijasida olingan duragaylardan tezpişar rekombinantlarni ajratib oliş imkoniyati paydo böldi. Masalan, tezpişar T-792 tizmasi va Omad navi iştirokidagi F_3T-792 x F_1[(F_1Namangan-77 x Sicala) x (F_1Omad x Siocra)], F_3Omad x F_1[(F_1Namangan-77 x Sicala) x (F_1Omad x Siocra)] duragaylar ösimliklarining asosiy qismi variatsion qatorni 100-105 kungaça bölgan çap sinflarida joylaşganligini keltirib ötiş mumkin. Şuni ta'kidlaş joizki, faqatgina F_3Omad x F_1[(F_1Omad x Siocra) x (F_1Namangan-77 x Sicala)] va F_3Namangan-77 x F_1[(F_1S-2609 x S-9070) x (F_1S-2609 x Omad)] (112,7 va 112,2 kun) kombinatsiyalaridan taşqari qolgan barça uçinçi avlod turlararo duragaylarda tezpişarlik qayd etildi, ya'ni belgi körsatkiçi 106,7 kundan 110,9 kungaça bölganligi aniqlandi.

3-jadval

F_3 duragaylarida 50% kösaklar oçilişi belgisining şakllanişi (kun hisobida)

T/r	Boşlanğiç namunalar va F_3 duragaylari	K=3											X±Sx	G	V%
		100-102	103-105	106-108	109-111	112-114	115-117	118-120	121-123	124-126	127-129	130-132			
1.	Namangan-77		1	11	28	5	12	3					111,3±0,6	5,0	4,5
2.	S-9070	13	8	29	7	2	1						106,0±0,4	3,4	3,2
3.	S-6530		15	16	6	11	5	6	1				109,9±0,7	5,2	4,7
4.	S-2609	4	8	18	20	4	5						108,4±0,5	3,8	3,5
5.	Omad	21	30	4	3	2							103,8±0,4	2,9	2,8
6.	Sicala				11	8	15	10	12	4			116,8±0,6	4,6	4,0
7.	Siocra				7	7	13	10	15	3	5		118,4±0,7	5,2	4,4
8.	T-792	27	29	2	1	1							103,0±0,3	2,3	2,3
9.	C-2609 x C-9070			6	8	10	17	9	10				115,2±0,6	4,6	4,0
10.	C-2609 x Omad			4	8	15	18	12	3				114,7±0,5	3,8	3,3
11.	T-792 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	2	10	13	23	6	2	3	1				109,2±0,6	4,4	4,0
12.	S-2609 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	5	7	10	19	9	2	5	3				110,1±0,7	5,4	4,9
13.	Omad x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]		3	4	16	18	13	4	2				112,7±0,5	4,0	3,6
14.	T-792 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	17	24	11	4	2	1	1					104,8±0,5	3,9	3,7
15.	S-2609 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	8	19	14	9	6	3	1					106,9±0,6	4,4	4,1
16.	Omad x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	15	22	14	6	1	1	1					105,2±0,5	3,8	3,6
17.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	3	9	12	17	5	7	2	5				110,3±0,7	5,6	5,1
18.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	6	4	13	8	16	9	4					110,3±0,7	5,1	4,6
19.	Nam-77 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]		6	4	15	18	11	4	2				112,2±0,6	4,4	3,9
20.	T-792 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	3	7	21	17	8	3	2					108,8±0,5	4,0	3,6
21.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	1	11	7	19	10	4	6	1	1			110,6±0,7	5,2	4,7
22.	S-9070 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	3	9	6	16	12	5	7	2				110,9±0,7	5,4	4,9
23.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]		7	13	18	11	3	4	2	2			111,0±0,7	5,2	4,7
24.	Omad x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	14	10	20	5	7	3	1					106,7±0,6	4,6	4,3

Yuqoridagi natijalardan şunday xulosaga kelindi, tezpişarlik belgisi birinçi böğin duragaylarda asosan dominant va öta dominant holda irsiylanişi aniqlandi.

F_2 duragaylarda keng kölamda ijobiy transgressiya holati qayd qilindi. Ikkinçi avlod duragaylarda keng qamrovli tanlov işlarini olib boriş natijasida keçpişar ösimliklarning duragay populyatsiyalardan çiqib ketilişiga erişildi va ularda tezpişarlik körsatkiçi yaxşilanganligi kuzatildi.

2. Duragaylarda bitta kösakdagi paxta vazni belgisining irsiylanişi, özgaruvçanligi va şakllanişi. Tajribada iştirok etgan boşlanğiç namunalarning bitta kösakdagi paxta vazni belgisi S-6530, Namangan-77 navlarida mos ravişda 4,8 g va 4,9 g ni, Omad hamda S-2609 navlarida tegişli ravişda 6,3 g va 6,5 g ni taşkil etdi. Şuningdek, qolgan barça namunalarning kösakdagi paxta vazni örtaça yiriklikda (5.1-5,6 g) bölganligi kuzatildi (4-jadval). Bitta kösakdagi paxta vazni belgisi böyiça birinçi avlod duragaylardan olingan natijalarga nazar taşlasak, örganilgan F_1S-2609 x S-9070 duragayda mazkur belgining oraliq holda irsiylanganligi qayd qilindi. Jadval ma'lumotlaridan körinib turibdiki, belgi böyiça eng yuqori natija yirik kösakli Omad va S-2609 navlarini özaro çatiştirişdan olingan F_1C-2609 x Omad duragayida kuzatilib, körsatkiç 6,9 g ni taşkil etdi.

4-jadval

F_1 duragaylarida bitta kösakdagi paxta vazni belgisining irsiylanişi (g. hisobida)

T/r	Boşlanğiç namunalar va F_1 duragaylari	X±Sx	G	V%	Hp
1.	Namangan-77	4,9±0,06	0,5	9,5	
2.	S-9070	5,4±0,05	0,4	6,7	
3.	S-6530	4,8±0,05	0,4	8,9	
4.	S-2609	6,5±0,07	0,6	8,5	
5.	Omad	6,3±0,08	0,6	9,4	
6.	Sicala	5,4±0,07	0,5	9,6	
7.	Siocra	5,6±0,07	0,5	9,2	
8.	T-792	5,1±0,06	0,5	9,6	
9.	C-2609 x C-9070	6,3±0,07	0,6	9,0	0,6
10.	C-2609 x Omad	6,9±0,07	0,5	7,4	5,0
11.	T-792 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	5,2±0,09	0,7	13,1	-0,9
12.	S-2609 x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	6,3±0,10	0,8	12,0	-2,3
13.	Omad x F_1[(F_1OmadxSiocra)x(F_1Nam-77xSicala)]	5,8±0,07	0,5	8,8	-3,0
14.	T-792 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	4,9±0,08	0,6	12,0	-1,3
15.	S-2609 x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	6,5±0,09	0,7	10,9	-1,0
16.	Omad x F_1[(F_1Nam-77xSicala)x(F_1OmadxSiocra)]	6,1±0,09	0,7	11,6	-2,3
17.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	6,4±0,10	0,7	11,4	-3,0
18.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xOmad)x(F_1C-2609xC-9070)]	6,1±0,08	0,6	10,3	0,4
19.	Nam-77 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	6,2±0,09	0,7	11,2	0,5
20.	T-792 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	6,2±0,10	0,7	11,9	0,5
21.	S-2609 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	6,8±0,08	0,6	9,4	5,0
22.	S-9070 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	5,9±0,09	0,7	11,4	-0,2
23.	S-6530 x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	6,5±0,10	0,8	12,1	0,9
24.	Omad x F_1[(F_1C-2609xC-9070)x(F_1C-2609xOmad)]	6,6±0,08	0,6	9,3	1,0
	$EKF_{(05)}$	**0,14**			

Örganilgan birinçi böğin duragaylarda bitta kösakdagi paxta vazni belgisi böyiça olingan natijalar şuni körsatdiki, uşbu avlod duragaylarining aksariyat qismida belgining oraliq, ijobiy va salbiy irsiylanişi kuzatildi. Tajriba tahlillari natijasida turlararo duragaylar içidan faqatgina F_1C-2609 x F_1[(F_1S-2609 x S-9070) x (F_1S-2609 x Omad)] kombinasiyasida öta dominantlik holati (hp=5,0) va F_1Omad x F_1[(F_1S-2609 x S-9070) x (F_1S-2609 x Omad)] duragayida esa töliq dominantlik (hp=1,0) holati aniqlandi.

F_2 duragaylarining aksariyat qismida ijobiy transgressiya kuzatildi, ya'ni kombinatsiyalarning köpçiligida kösakdagi paxta vazni böyiça variatsion qatorning 8,5 g gaça bölgan sinflarida ham ösimliklar mavjudligi kuzatildi (5-jadval).

F_2 duragaylarning bitta kösakdagi paxta vazni boşlanğiç namunalarni körsatkiçlariga nisbatan ança yuqori böldi (mos ravişda 6,6 g; 6,7 g; 6,9 g; 7,0 g). Şuningdek, turlararo duragaylarning belgi böyiça körsatkiçlari variatsion qatorning 3,6-8,5 g li sinflari oraliğida joylaşganligi jadval ma'lumotlarida öz aksini topgan. Bu esa öz navbatida, ikkinçi böğin duragaylar kombinatsiyalari içida keng özgaruvçanlik yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

